

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 836,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 7,0 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 357,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 479,4 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **7,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **9,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **2,6 mingta nikoh** va **0,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)

Tirik tug'ilganlar
9,1 ming bola

Tabiiy
o'sish
+7,3
ming kishi

Vafot etganlar
1,8 ming kishi

Aholining
umumiyl
o'sishi
7,0
ming kishi

Ko'chib kelganlar
4,4 ming kishi

Mexanik
o'sish
(kamayish)
-0,3
ming kishi

Ko'chib ketganlar
4,7 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi
(2018-2019 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O`tgan yilga nisbatan o'sish sur'ti, %
Sirdaryo viloyati	821,9	836,9	101,8
Guliston sh.	88,4	89,8	101,6
Shirin sh.	18,5	18,6	100,5
Yangiyer sh.	42,0	42,9	102,1
tumanlar:			
Oqoltin	50,5	51,3	101,6
Boyovut	126,0	128,2	101,7
Guliston	69,7	71,4	102,4
Sayhunobod	75,1	76,3	101,6
Mirzaobod	70,3	72,1	102,6
Sardoba	64,0	65,1	101,7
Sirdaryo	124,6	126,8	101,8
Xovos	92,8	94,4	101,7

*) dastlabki ma`lumot


Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko`p aholi soni Boyovut tumanida 128,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 126,8 ming kishini(15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,6 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 42,9 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,6%ni, Guliston tumanida 2,4%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Osoltin tumanida 1,6 % ni va Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

Demografik holat


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi

(2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	420,1	416,8
Guliston sh.	44,8	45
Shirin sh.	9,1	9,5
Yangiyer sh.	21,4	21,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	25,8	25,5
Boyovut t.	64,8	63,4
Guliston t.	35,3	36,1
Sayhunobod t.	38,1	38,2
Mirzaobod t.	37,5	34,6
Sardoba t.	33,0	32,1
Sirdaryo t.	63,2	63,6
Xovos t.	47,1	47,3

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 iyul holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 9,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,0 promillega ko`paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 20,1 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan shirin shahrida (15,0 promilledan 18,2 promillega), Oqoltin tumanida (19,4 promilledan 22,0 promillega), Guliston shaxar (24,7 promilledan 27,5 promillega), Sayhunobod tumanida (19,9 promilledan 22,4 promillega sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish hududlarda qayd etilmadi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



**Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi
(yanvar-iyun)**


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
Sirdaryo viloyati	8147	9128	112,0
Guliston sh.	1083	1218	112,5
Shirin sh.	138	168	121,7
Yangiyer sh.	430	455	105,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	485	559	115,3
Boyovut	1197	1340	111,9
Guliston	656	729	111,1
Sayhunobod	740	847	114,5
Mirzaobod	700	819	117,0
Sardoba	635	705	111,0
Sirdaryo	1166	1294	111,0
Xovos	917	994	108,4

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 1,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan minus -0,3 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 4,7 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Shirin shahrida (6,1 promilledan 4,1 promillega) Mirzaobod (4,4 promilledan 3,9 promillega), Sirdaryo (5,6 promilledan 5,0 promillega) Oqoltin (4,3 promilledan 3,6 promillega), tumanlarda kuzatilgan bo`lib aksincha Xovos tumanida (3,9 promilledan 4,1 promillega) o'sish holati kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: Ayollar:
0,9 ming kishi
Ayollar:
0,9 ming kishi

Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi
(yanvar-iyun)**


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	1914	1834	95,8
Guliston sh.	247	231	93,5
Shirin sh.	56	38	67,9
Yangiyer sh.	98	131	133,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	107	91	85,0
Boyovut	268	256	95,5
Guliston	176	165	93,8
Sayhunobod	162	168	103,7
Mirzaobod	153	138	90,2
Sardoba	122	115	94,3
Sirdaryo	346	310	89,6
Xovos	179	191	106,7

Demografik holat

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,9%i o'simtalardan, 6,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, hamda 8,3%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 103 nafarni tashkil etib, ularning 69,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 4,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (131,1%), Yangiyer shahrida (116,9%), Sayhunobod tumanida (121,1%), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Boyovut (92,7 %), Sirdaryo (95,1 %), Sardoba (86,5%), Xovos (95,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shirin sh (200 %), Sayxunobod (177,8 %) va Sardoba (162,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsienti
Sirdaryo viloyati	2593	6,3
Guliston sh.	480	10,3
Shirin sh.	56	6,1
Yangiyer sh.	138	6,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	186	7,3
Boyovut t.	357	5,6
Guliston t.	198	5,6
Sayhunobod t.	184	4,9
Mirzaobod t.	194	5,5
Sardoba t.	192	6,0
Sirdaryo t.	352	5,6
Xovos t.	256	5,5

Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)

	Ajrim	Ajrim koeffitsienti
Sirdaryo viloyati	568	1,4
Guliston sh.	89	2,0
Shirin sh.	20	2,2
Yangiyer sh.	50	2,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	36	1,4
Boyovut t.	59	0,9
Guliston t.	39	1,1
Sayhunobod t.	48	1,3
Mirzaobod t.	44	1,2
Sardoba t.	39	1,2
Sirdaryo t.	96	1,5
Xovos t.	48	1,0

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
Sirdaryo viloyati	2446	2593	106,0	559	568	101,6
Guliston sh.	366	480	131,1	120	89	74,2
Shirin sh.	33	56	169,7	10	20	200,0
Yangiyer sh.	118	138	116,9	42	50	119,0
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	160	186	116,3	27	36	133,3
Boyovut	385	357	92,7	78	59	75,6
Guliston	188	198	105,3	37	39	105,4
Sayhunobod	152	184	121,1	27	48	177,8
Mirzaobod	183	194	106,0	30	44	146,7
Sardoba	222	192	86,5	24	39	162,5
Sirdaryo	370	352	95,1	113	96	85,0
Xovos	269	256	95,2	51	48	94,1

Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,4 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,2 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	4,4	4,3
Ko'chib ketganlar	4,6	4,7
Migratsiya saldosi	-0,2	-04

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Sardoba tumanida (minus 0,2 ming kishi), Sayxunobod tumanida (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.

■ Ko'chib kelganlar ■ Ko'chib ketganlar

